

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 658.114.32.331(575.1)

SUVONOV BEKNIYOZ BAXTIYOR O'G'LI

XO'JALIK YURITUVCHI SUBEKTLARDA MEHNAT
KO'RSATKICHLARI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(Doctor of Philosophy)
DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:
i.f.d., prof. To'rayev A.N.

Toshkent-2025

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I-BOB.	XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘EKTLARDA MEHNAT KO‘RSATKICHLARI TAHLILINI TASHKIL QILISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	12
1.1.	Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda mehnat ko‘rsatkichlarining iqtisodiy mohiyati va mazmuni hamda uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	12
1.2.	Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy asoslari.....	27
1.3.	Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilining xorij tajribasi va undan respublikamizda foydalanish jihatlari.....	36
II-BOB.	XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘EKTLARDA MEHNAT KO‘RSATKICHLARINI TAHLIL QILISHNING AMALIY JIHATLARI.....	52
2.1.	Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilining tashkiliy-iqtisodiy jihatlari.....	52
2.2.	Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda mehnat samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili.....	64
2.3.	Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda mehnat samaradorligi o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar va ularni aniqlash yo‘llari.....	79
III-BOB.	XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘EKTLARDA MEHNAT KO‘RSATKICHLARI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH.....	96
3.1.	Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilini takomillashtirish.....	96
3.2.	“KVARTS” AJ va “O‘zmaxsusmantajqurilish” AJ larda mehnat haqqi tahlilini takomillashtirish.....	108
3.3.	Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilini ekonometrik modellashtirish.....	126
	XULOSA.....	121
	FOYDALANILGAN ADABIOTLAR RO‘YXATI.....	133
	ILOVALAR.....	143

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda mehnat unumdorligi, ishchi kuchidan samarali foydalanish hamda mehnat samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari 2021–2025-yillarda iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Jumladan, "AQSHda mehnat unumdorligi 2021-yilda har bir soatlik ishchi mehnatiga to'g'ri kelgan ishlab chiqarish hajmi 70,6 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning oxirida ushbu ko'rsatkich 78,9 dollarga yetkazilishi prognoz qilinmoqda – bu 11,8% o'sish demakdir"¹. "Germaniyada esa 2021–2024-yillar oralig'ida mehnat unumdorligi o'rtacha 9,3% ga o'sgan, bu avtomatlashtirish va raqamli mehnat tahlil tizimlarini joriy etish natijasidir"². "Janubiy Koreyada mehnat unumdorligining o'sish sur'ati 2021-yilda 6,4% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga borib bu ko'rsatkich 14,7% ga yetishi kutilmoqda"³. Ushbu mamlakatlarda ishchi kuchi samaradorligini tahlil qilish, mehnatni rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini mehnat ko'rsatkichlari asosida qabul qilish keng yo'lga qo'yilgan. Shunday ekan, mehnat ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar asosida shakllantirish va tahlil qilish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligiga erishish mumkin.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish jarayonida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda mehnatga haq to'lash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tobora keng qamrovli ilmiy izlanishlarning markazida turibdi. Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo sohalarida faoliyat yurituvchi sub'ektlarda mehnat ko'rsatkichlari tahlilini xalqaro miqyosda tan olingan uslublar,

¹ AQSH Mehnat statistikasi byurosi 2024-yil uchun mehnat unumdorligi va xarajatlari bo'yicha choraklik va yillik hisoboti. <https://www.bls.gov>

² Germaniya Federal statistika boshqarmasi – Destatis 2021–2024-yillar uchun Germaniyada mehnat unumdorligi bo'yicha hisobot. <https://www.destatis.de>

³ Koreya Mehnat unumdorligi markazi 2023-yilgi Milliy mehnat unumdorligi statistikasi yilnomasi. Seul: KPC nashriyoti. https://eng.kpc.or.kr/eng/national/na_productivity.asp

ilg'or texnologiyalar va standartlar asosida tashkil etish, mehnat xarajatlari, ish haqi, rag'batlantirish to'lovlari hamda ularning moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirish, mehnat ko'rsatkichlar bo'yicha samaradorlik va unumdorligi, xodimlar potensialini oshirishga oid xalqaro standartlarni amaliy joriy etish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda mehnat ko'rsatkichlari tahlilini takomillashtirish, xalqaro tajriba hamda standartlarga asoslangan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, bankrotlik holatlarining oldini olish va ish o'rinlarini saqlab qolish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan mehnatga haq to'lashni subsidiyalash va aholining daromad manbalarini qo'llab-quvvatlash, davlat byudjeti hisobidan 1,8 trln so'mdan ortiq subsidiya ajratish, 60 mingga yaqin sub'ektga soliq hamda ijtimoiy sug'urta to'lovlarini kechiktirish bo'yicha imtiyozlar berish, foiz stavkalarini 16 % dan 14 % ga tushirish orqali tadbirkorlik sub'ektlarining kredit resurslariga kirishini yengillashtirish, shu bilan birga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda xodimlar mehnat unumdorligini saqlash, rag'batlantiruvchi to'lovlarni tashkil etish, mehnatga haq to'lash hisobini takomillashtirish hamda ish haqi va unga bog'liq xarajatlarning hisobga olinishi, tasniflanishi, tan olinishi va baholanishini moliyaviy hisobot standartlari asosida isloh qilish bo'yicha qo'shimcha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "«O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 30-avgustdagi PQ-366-son "Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida